

**BUXORO TARIXI-O'ZBEKISTON TARIXI SIVILIZATSİYANING AJRALMAS****QISMİ****Mirzayeva Sevinch Muzaffarovna**

Osiyo xalqaro universiteti

Tarix ta'lif yo'naliishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15093822>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolamda Buxoroning qadimiyligi, Ipak yo'lining ham shu yerdan o'tganligi aynan Buxorodan turli xil hunarmandchilik buyumlari va toshdan yasalgan mehnat qurollarning ko'pligi, shuningdek Buxoroda bir nechta arxeologlarimizning tatqiqot ishlari qazishmalarida erishgan yutuqlarini batafsil yoritib bermoqchiman.

**Kalit so'zlar.** Buxoro shaxri, Zarafshon daryosi, Abdullaxon II, Shayboniyalar, Poykant Varaxsha, Rudizar, Zomonbobo, dehqonchilik, hunarmandchilik, Arab xalifaligi.

**HISTORY OF BUKHARA - THE HISTORY OF UZBEKISTAN IS AN INTEGRAL PART OF CIVILIZATION**

**Abstract.** In this article, I would like to discuss in detail the antiquity of Bukhara, the fact that the Silk Road passed through this place, the abundance of various handicrafts and stone tools from Bukhara, as well as the achievements of several of our archaeologists in their research excavations in Bukhara.

**Keywords.** Bukhara city, Zarafshan River, Abdulkhan II, Shaybanis, Poykant Varakhsha, Rudizar, Zomonbaba, agriculture, crafts, Arab Caliphate.

**ИСТОРИЯ БУХАРЫ ЯВЛЯЕТСЯ НЕОТЪЕМЛЕМОЙ ЧАСТЬЮ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА**

**Аннотация.** В этой статье я хотел бы подробно рассказать о древности Бухары, о том, что через нее проходил Шелковый путь, обилии различных ремесленных изделий и каменных орудий из Бухары, а также о достижениях ряда наших археологов в их исследовательских раскопках в Бухаре.

**Ключевые слова.** Город Бухара, река Зарафшан, Абдуллахан II, Шейбаниды, Пойкант Варахша, Рудизар, Зомонбаба, сельское хозяйство, ремесла, Арабский халифат.

Qadimdan Buyuk ipak yo'lida yirik tijorat markazlaridan bo'lgan Buxoro shahri O'zbekistonning janubiy-g'arbida Zarafshon daryosi quyi oqimida joylashgan.

Buxoro vohasida milloddan avvalgi 4-3 ming yillardayoq ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanib, toshdan turli qurol va buyumlar yashash mahorati yuksak darajaga yetgan bo'lib,

neolit davriga mansub bo‘lgan qabilalar yashagani isbotlangan<sup>1</sup>. Neolit davri (miloddan avvalgi 8-5 – ming yillik)ga oid madaniyat yodgorliklarining topilishi, bu yerda shahar madaniyatining shakllanishi uzoq o‘tmishga borib taqalishidan dalolat beradi.

Buxoro shahriga arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra milloddan avvalgi 1- ming yillikning o‘rtalarida asos solingan. Buxoro shahrining o‘zagi 3 qismdan, ya’ni Zarafshon tarmog‘ining o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan Ark, daryoning o‘ng va chap qirg‘og‘idagi qishloqlardan iborat deb hisoblanadi.

Buxoro vohasining qadimgi davr tarixini o‘rganishda hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning ahamiyati beqiyos. Vohadagi Poykent, Varaxsha yodgorliklarini arxeologik o‘rganish XX asr birinchi yarmida boshlanib, hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. L.A.Zimin, V.A.Shishkin, A.R.Muhammadjonov, J.Mirzaahmedov kabi olimlar tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar<sup>2</sup> natijasida yodgorliklarning voha ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotida egallagan salmoqli o‘rni aniqlanib, to‘plangan ma’lumotlar ilmiy jamoatchilik hukmiga havola etildi. Shuningdek, bronza davriga oid Zamonbobo yodgorligi Zarafshon arxeologik ekspeditsiyasining a’zolari Yahyo G‘ulomov va Ahmadali Askarov tarafidan o‘rganilib, Buxoro vohasining janubiy-g‘arbiy qismida ibridoiy madaniyat izlari mavjudligi aniqlandi. Qo‘lga kiritilgan ushbu ilmiy yutuqlarning talabalar diqqatiga havola etilishi, ularning qadimgi mahalliy madaniyat to‘g‘risidagi bilim va tasavvurlarini kengaytiradi<sup>3</sup>.

Buxoro shahrini yoshini aniqlash borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar hason o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Vohada ilk shaharlarning vujudga kelishi tabiiy iqlim sharoitlari, geografik joylashuv va asosiysi Zarafshon daryosining ahamiyati bilan belgilanadi. Zarafshon daryosining Xitfar, Rudizar, Qorako‘ldaryo, Moxondaryo kabi irmoqlari Buxoro vohasida o‘troq dehqonchilik va urbanizatsiya jarayonlarining keng yoyilishida muhim o‘rin tutgan. Akademik V.V.Bartold ta’biri bilan aytganda, Buxoro shahri dastlabki paydo bo‘lgan hududini o‘zgartirmasdan, hamon o‘sha joyda qad ko‘tarib turibdi. Aynan shunday holat Buxor shahri hududida arxeologik tadqiqotlar olib borish ishlarini ancha murakkablashtirib yubordi. Shunday bo‘lsa-da, shaharda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar uning qadimiyligini isbotladi.

Shuningdek, o‘rta asr tarixchisi Narshaxiying Buxoro tarixiy topografiyasini yuzasidan qoldirib ketgan ma’lumotlari arxeologik tadqiqotlar natijasida o‘z tasdig‘ini topdi.

Milloddan avvalgi IV asrda Buxoro arki qurilajak hudud baland mudofaa devor va keng handak bilan o‘rab olinib, uning etagida 3 ta mustahkamlangan manzilgohlar bunyod etiladi .

<sup>1</sup>.Мирзакулов Б. “Бухоро тарих зарваракларида”. Монография. 1-китоб, Т., Lesson Press, 2016. – Б. 6

<sup>2</sup> Қаҳрамон Ражабов. Бухоро вилояти тарихи. Қисқача маълумотнома. Т., “Тафаккур” нашриёти, 2015,93-бет.

<sup>3</sup> Бухоро Шарқ дурдонаси. Т: Шарқ, 1997. – Б. 85

Ushbu manzilgohlardan biri “Firobdiz”, ikkinchisi “Navmichkat”, uchinchisi “Buxoro” deb atalgan. Keyinchalik bu manzilgohlar o‘zaro birlashib va to‘xtovsiz taraqqiy etib, katta shaharga – Buxoro vohasining savdo-hunarmandchilik va ma’muriy markaziga aylangan<sup>4</sup>.

Ilk o‘rta asrlarda Buxoro shahrining faqat uchta sug‘orish tarmoqlari bo‘ylab to‘rt mingga yaqin qasr qurilgan. Ko‘shk va qasrli qo‘rg‘onlarda zodagon dehqonlar, kichik qo‘rgonchalarda esa oddiy mehnatkash aholi istiqomat qilgan hamda dushmanlar hujumidan o‘zini himoya qilgan.

Dehqonchilikning rivojlanishi, hunarmandchilik va savdo-sotiqning yuksalishi shaharlarning gullab-yashnashiga, hunarmandchilik mahallalarining ko‘payishiga olib kelgan. VI-VII asrlarda Buxoroda aholi yashaydigan mahallalar zich joylashgan edi, shaharning umumiyy maydoni 200 gektarga yaqin bo‘lgan. VII asrda Buxoro shahri besh qismdan iborat bo‘lib, u besh qator devor xalqasi bilan o‘rab olingan edi. Shahar oralab o‘tgan anhor xandak vazifasini o‘tagan. Ilk o‘rta asrlarda obod vohalarni tashqi dushman bosqinidan himoya etish uchun ularning atroflari bir necha yuz chaqirim uzunlikda baland va qalin devorlar bilan qurshab olingan edi. Buxoro vohasi atrofini 336 km. lik masofada o‘rab olgan mudofaa devori “Kanpirak” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Narshahiyning yozishicha bu devor 783-831 yillarda barpo etilgan<sup>5</sup>.

VI-VIII asrlarda shahar buxorxudotlar hokimligi poytaxti bo‘lgan. 709 yil Arab xalifaligiga qo‘shib olingan, IX asr oxiriga kelib, Buxoro musulmon dunyosining yirik madaniy va diniy markazlaridan biriga aylanadi. Uni “islom olamining quvvati” deya ulug‘laydilar. Bu yerda masjidlar va minoralar, madrasa va diniy majmualar qurilishi boshlanadi. IX- X asrlarda somoniylar poytaxti bo‘l ib, Samoniylar hukmronligi davrida Buxoro shahri va uning atrofidagi yerlarni sun‘iy sug‘orish uchun Zarafshon daryosi va undan chiqarilgin anhor –ariqlarda suv yetarli darajada bo‘lgan<sup>6</sup>. Qoraxoni hukmdorlardan Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon (1102-1130) o‘z davrida Buxoro va Boykandda alohida qarorgoh – saroy qurdirgan, Buxoro shahrining Darvoza mahallasida uning farmoniga ko‘ra saroy va hammom qurilgan. Arslonxon o‘z davrida Buxoro eski devorining oldiga yangi devor ham qurishga buyurdi va ikkala devor bir-biriga yopishib mustahkam bo‘ldi. 1220 yilda Buxoro shahri Chingizzon qo‘shinlari tomonidan bosib olindi. Mahalliy aholining ko‘pchiligi qirg‘in etildi, hunarmandlar qul qilindi.

<sup>4</sup> Каҳрамон Ражабов. Бухоро вилояти тарихи. Қисқача маълумотнома. Т., “Тафаккур” нашриёти, 2015, 93-бет.

<sup>5</sup> Бухоро тарихи. Мерос, Т. 1991. 112-бет

<sup>6</sup> Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишлиланган ҳалқаро симпозиум тезислари. -Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 36

Buxoro shahri xarobazorga aylantirildi<sup>7</sup>. Buxoro XVI asrning birinchi yarmida Shayboniyalar va ko‘chmanchi o‘zbeklar qo‘liga o‘tadi.

XVI asrning ikkinchi yarmiga kelib Buxoroning siyosiy markaz sifatidagi roli osha boshlaydi. Abdullaxon II (1534-1598) xon bo‘lgan davrda Buxoro Shayboniyalar davlatining poytaxtiga aylanadi. Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullahoma” asarida Buxoro shahrini tavsiflashda rivoyatlardan ham foydalanadi jumladan Abu Nasr Ahmad al-Qubaviy rivoyat qilishlaricha, “Rasulu salollohu alayhi vassalom (Muhammad payg‘ambar), buyurdiki, mendan so‘ng yaqinda Xurosonda, Jayhun deb atalgan daryoning orqasida bir shahar qurildi.(Uning)nomi Buxoro deb ataldi<sup>8</sup>.

### XULOSA.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Buxoro shahri har bir sulola hukmronligi davrida o‘zgarib, o‘zgacha tus ola bordi. Ayniqsa, Shayboniyalar hukmdorlardan Ubaydullaxon va Abdullaxon II hukmronligi davrida Buxoro xonligida ziroatchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlandi va madaniy hayot ancha yuksaldi. Xonlikning poytaxti sifatida Buxoro shahri esa kengaytirildi, devor va harbiy istehkomlar qayta qurildi. Madrasalar, xonaqoh va karvonsaroylar, yangi savdo rastalari barpo qilindi. Buxoro va boshqa shaharlar o‘rtasidagi savdo yo‘laklarida tim (usti yopiq rasta)lar, ko‘chalar, chorrahalar va hammomlar, karvon yo‘llarida sardobalar va ko‘priklar qurildi.

### REFERENCES

1. Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган ҳалқаро симпозиум тезислари. -Т.: Ўзбекистон, 1997.
2. Мирзакулов Б. Бухоро тарих зарваракларида. 1-китоб. –Т.: Lessor Press, 2016.
3. Бухоро тарихи. Мерос, Т. 1991
4. Қаҳрамон Ражабов. Бухоро вилояти тарихи. Қисқача маълумотнома. Т., “Тафаккур” нашриёти, 2015
5. Бухоро Шарқ дурдонаси. Т: Шарқ, 1997
6. Қаҳрамон Ражабов. Бухоро вилояти тарихи. Қисқача маълумотнома. Т., “Тафаккур” нашриёти, 2015 .
7. Toshpo’latova, S. (2025). FOROBIYNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O’QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRISH METODIKASI. Modern Science and Research, 4(1), 177-186.

<sup>7</sup> Мирзакулов Б. Бухоро тарих зарваракларида. Монография. 1-китоб, Т., Lesson Press, 2016. – Б. 45

<sup>8</sup> Мирзакулов Б. Бухоро тарих зарваракларида. Монография. 1-китоб, Т., Lesson Press, 2016. – Б. 96

8. Toshpo'latova, S., Gadayeva, M., & Sadullayev, U. (2024). SHARQ ALLOMALARINING DIDAKTIK QARASHLARI. Modern Science and Research, 3(12), 985-993.
9. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., & Sadullayev, U. (2024). TARIX FANLARINI OQITISHDA MUZEYLARNING ORNI. Modern Science and Research, 3(12), 994-1003.
10. Sadullayev, U., Gadayeva, M., & Toshpo'latova, S. (2024). MAHALLA-QADRIYATLAR BESHIGI. Modern Science and Research, 3(12), 1228-1238.
11. Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRIS METODIKASI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14520996>
12. Toshpo'latova, S. (2024). TARIX FANINI O'QITISHDA SAMARALI METODLAR. Modern Science and Research, 3(11), 774-782.
13. Тошполатова, Ш. (2024). THE PRESENT IRANIANS. Журнал универсальных научных исследований, 2(5), 453-462.
14. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. Modern Science and Research, 3(5), 522-529.
15. Toshpo'latova, S. (2024). O'RTA ASRLARDA OILA PEDAGOGIKASIGA OID FIKRLAR. Modern Science and Research, 3(12), 353-361.
16. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. Modern Science And Research, 3(5), 148-151.
17. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. Modern Science and Research, 3(2), 447-450.
18. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. SPAST Reports, 1(7).
19. Shukhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 4(3), 432-437.
20. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV-O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. Innovations in Technology and Science Education, 2(8), 1214-1222.
21. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. Modern Science and Research, 3(2), 87-93.
22. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. Modern Science and Research, 3(2), 1004-1011.

23. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. Modern Science and Research, 3(2), 500-507.
24. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. Modern Science and Research, 3(1), 504-510.
25. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). MS Andreyev'S Way Of Life. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(10), 655-659.
26. Shuhratovna, T. S. (2023). Ethnological Analysis Of National Costumes And Rituals Of Tajiks In The Works Of MS Andreyev. International Journal Of History And Political Sciences, 3(12), 42-47.
27. Toshpo'latova, S. (2023). MS Andreyev-Scientific Career. Modern Science and Research, 2(12), 801-807.
28. Shuhratovna, T. S. (2023). Etymology Of Tajik Marriage Ceremony. International Journal Of History And Political Sciences, 3(11), 17-23.
29. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV- " ARK BUKHARI". Modern Science and Research, 2(9), 404-409.
30. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRICAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. Modern Science and Research, 2(10), 291-299.
31. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. Modern Science and Research, 2(9), 84-89.
32. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). Marriage Ceremony Of Tajiks In The Work Of Mikhail Stepanovich Andreyev "Tadjiki Dolini Khuf". International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 3(1), 12-16.
33. Toshpo'latova, S. S. (2023). Tojiklar Milliy Kiyim-Kechaklari Va "Beshmorak" Marosimining Etnologik Tahlili. Scholar, 1(28), 395-401.
34. Toshpo'latova, S., & Hoshimova, M. (2025). BERUNIY VA UNING DIDAKTIK QARASHLARI. Modern Science and Research, 4(1), 344-351.
35. Toshpo'latova, S. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRISH METODIKASI. Modern Science and Research, 3(12), 643-651.
36. Muyiddinov, B., Toshpo'latova, S., & Gadayeva, M. (2025). TEMURIYLAR DAVRIDA KUTUBXONACHILIK, HUJJATCHILIK VA ISH YURITISHNING O'ZIGA XOSLIGI. Modern Science and Research, 4(2), 97-105.

37. Toshpo'latova, S., Gadayeva, M., & Muyiddinov, B. (2025). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI TARKIB TOPTIRISH MODELI. *Modern Science and Research*, 4(2), 106-116.
38. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., & Muyiddinov, B. (2025). TARIX DARSLARINI OQITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 87-96.
39. Toshpo'latova, S. (2025). O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI TARKIB TOPTIRISH MODELINING MAZMUNI VA AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 581-590.
40. Toshpo'latova, S. (2025). BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI. *Modern Science and Research*, 4(3), 235-245.